


MChJ “Tashkent International
University of Education”
2025-yil «__» ____ dagi
____-sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

“TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY OF EDUCATION”


2025/2026-O‘QUV YILI UCHUN QABUL QOIDALARI



<https://tiue.uz/>



APPLY.TIUE.UZ



Location

Mundarija

1. Kirish	3
2. Tamoyillar	3
3. Taklif etilinayotgan dasturlar	4
4. Ta'lim shakllari	6
5. Qabul kvotasi	6
6. Imkoniyati cheklangan abituriyentlar	7
7. O'qishni qayta tiklash	7
8. Saralashning asosiy shartlari	7
9. Hujjatlarni qabul qilish jarayoni	8
10. Qabul qoidalari va hujjatlarga talablar	10
11. Mahalliy va xorijiy universitetlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul (TRANSFER) ...	13
12. Hujjatlarni qabul qilish va imtihon topshirish muddatlari	15
16. Appelyatsiya	20
17. To‘lov-kontrakt miqdori	20
18. Scholarhip & Moliyaviy yordam	23
19. TIUE kontakt ma'lumotlari	23

ABITURIYENTLARNI QABUL QILISH TARTIB-QOIDALARI

1. Kirish

- 1.1. Abituriyentlarni qabul qilish tartib-qoidalari (keyingi o‘rinlarda - tartib-qoidalari) “Tashkent International University of Education” (keyingi o‘rinlarda – “TIUE” yoki Universitet) o‘quv dasturlariga abituriyentlarni qabul qilish bilan bog‘liq barcha jarayonlar, tartiblar va qoidalari o‘z ichiga oladi.
- 1.2. Universitetning o‘quv dasturlariga qabul ushbu tartib-qoidalari asosida amalga oshiriladi.
- 1.3. Tartib-qoidalari O‘zbekistonda mahalliy va xalqaro abituriyentlarni dasturlariga qabul qilishni o‘z ichiga oladi.
- 1.4. Tartib-qoidalari barcha abituriyentlar uchun adolatli bo‘lishga va TIUE talablariga javob berishga qaratilgan.
- 1.5. TIUE xalqaro universiteti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020yil 23-iyundagi "Toshkent xalqaro ta’lim universitetini tashkil etish to‘g‘risida"gi 404-sonli qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Universitet oliy ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish uchun vakolat berilgan davlat organining 054806-sonli litsenziyasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2024-yil 30-iyulda berilgan nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risidagi 331829-sonli litsenziyasiga ega.

2. Tamoyillar

- 2.1. “TIUE” har bir talabaning qadriyatlarini tan oladigan va har bir shaxsni o‘z salohiyatiga erishishga undaydigan mehmondo‘st va bag‘rikeng hamjamiyatni yaratish va qo‘llab-quvvatlashga intiladi.
- 2.2. “TIUE” barcha talabalar uchun teng imkoniyatlarni berishga intiladi. Universitet turli millatdagi ta’lim oluvchi yoshlarni talabalar jamiyatini aks ettiruvchisi sifatida deb biladi va har bir talabaning tajribasini orttirishga intiladi.
- 2.3. “TIUE” tartib-qoidalari adolatli, ochiq va shaffof bo‘lishga qaratilgan.
- 2.4. Ushbu tartib-qoidalari Universitet umidlari va tamoyillarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, o‘rnatilgan tartib-qoidalari ta’lim sifatini oshirishga hamda kafolatlashga yo‘naltirilgan. Abituriyentlarni qabul qilish Universitetning tasdiqlangan barcha

ta’lim dasturlari, o‘qish shakllari va ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

- 2.5. “TIUE” ushbu tartib-qoidalarga muvofiq barcha ochiq ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha barcha manfaatdor abituriyentlarning hujjatlarini qabul qilishga tayyor.
- 2.6. “TIUE” kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etishga intiladi va har bir abituriyentga xushmuomalalik, adolatlilik va e’tiborni kafolatlaydi.
- 2.7. “TIUE” o‘qishga qabul qilish bo‘yicha qarorlarni o‘z vazifalarini vijdonan bajaradigan malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishini ta’minlaydi.
- 2.8. “TIUE” aniq, kerakli ma’lumotlar va maslahatlarni berish orqali oliy ta’lim imkoniyatlarini kengaytiradi hamda talabchan abituriyentlar o‘rtasida taklif etilayotgan xizmatlarning foydali takliflaridan xabardorlik, qiziqish va ishonchni oshiradi.
- 2.9. “TIUE” abituriyentlarga Universitet haqidagi ishonchli ma’lumotlarni faqat rasmiy veb-sayt va abituriyentning “TIUE” Talabalarni ro‘yxatga olish portalida ro‘yxatdan o‘tgan elektron pochta manzili orqali taqdim etadi.

3. Taklif etilinayotgan dasturlar

- 3.1. “TIUE” xorijiy va mahalliy abituriyentlar uchun o‘zbek, rus va ingliz tillarida quyidagi o‘quv dasturlarini taklif etadi:

Dasturlar	Ta’lim shakli	Ta’lim tili	O‘qish davomiyligi
International Foundation Programme “IFP” (“OTHM” Level 3)	Kunduzgi	Ingliz tili	1 (bir) o‘quv yili
BAKALAVR			
1. Ta’lim va ta’lim jarayonlarini boshqarish	Kunduzgi	O‘zbek, rus va ingliz tillari	4 (to‘rt) o‘quv yili
2. Amaliy matematika	Kunduzgi	O‘zbek va rus tillari	4 (to‘rt) o‘quv yili
3. Filologiya va tillarni o‘qitish (faqat rus tilida)	Kunduzgi	Rus tili	4 (to‘rt) o‘quv yili

4. Axborot texnologiyalari	Kunduzgi	O'zbek, rus va ingliz tillari	4 (to'rt) o'quv yili
	Sirtqi	O'zbek va rus tillari	5 (besh) o'quv yili
5. Kiberxavfsizlik	Kunduzgi	O'zbek va rus tillari	4 (to'rt) o'quv yili
	Sirtqi	O'zbek va rus tillari	5 (besh) o'quv yili
6. Biznes boshqaruvi	Kunduzgi	O'zbek, rus va ingliz tillari	4 (to'rt) o'quv yili
	Sirtqi	O'zbek va rus tillari	5 (besh) o'quv yili
7. Buxgalteriya hisobi va biznes	Kunduzgi	O'zbek, rus va ingliz tillari	4 (to'rt) o'quv yili
	Sirtqi	O'zbek va rus tillari	5 (besh) o'quv yili

MAGISTRATURA

1. Pedagogika nazariyasi va tarixi (MSc)	Kunduzgi	O'zbek va rus tillari	1,5 (bir yarim) o'quv yili
2. Ta'lif muassasalari boshqaruvi (MSc)	Kunduzgi	O'zbek va rus tillari	1,5 (bir yarim) o'quv yili
3. Ta'lif boshqaruvi va yetakchilik (MSc)	Kunduzgi	Ingliz tili	1,5 (bir yarim) o'quv yili
4. Ma'lumotlar ilmi (Data Science) (MSc)	Kunduzgi	O'zbek, rus va ingliz tillari	1,5 (bir yarim) o'quv yili
5. Buxgalteriya hisobi va moliya (MSc)	Kunduzgi	O'zbek, rus va ingliz tillari	1,5 (bir yarim) o'quv yili

- 3.2. “TIUE”da barcha o‘quv dasturlar to‘lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.
- 3.3. 17-banddagi jadvalda taklif etilayotgan dasturlar va bir o‘quv yili uchun to‘lov-kontrakt miqdori haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.
- 3.4. Har bir ta’lim yo‘nalishlari uchun ta’lim tillari (o‘zbek, rus va ingliz) kesimida kamida ellik (50) o‘rin ajratiladi (5.1.-band)

4. Ta’lim shakllari

- 4.1. 2025-2026-o‘quv yilida “TIUE” bakalavr ta’lim dasturlarini ikki shaklda- **kunduzgi va sirtqi** hamda magistratura yo‘nalishida **kunduzgi** shaklda taqdim etadi:

- 4.1.1. *Kunduzgi ta’lim* – mashg‘ulotlar o‘qituvchi tomonidan o‘quv rejalarini (ma’ruza, amaliy, laboratoriya) asosida auditoriyada olib boriladi va talabalar hafta davomida mashg‘ulotlarga qatnashadilar, mashg‘ulotlar 9:30 da boshlanadi.
- 4.1.2. *Sirtqi ta’lim* – asosan mustaqil ta’lim (www.lms.tiue.uz platformsi orqali) hamda har semestr yakunida 3 haftalik o‘quv mashg‘ulotlari shaklida o‘tkaziladi.

5. Qabul kvotasi

- 5.1. Har bir ta’lim yo‘nalishlari uchun ta’lim tillari (o‘zbek, rus va ingliz) kesimida kamida ellik (50) o‘rin ajratiladi. Shu bilan birga, tavsiya etilgan va qabul qilingan abituriyentlarning maksimal soni Universitet binosining imkoniyatlardan kelib chiqib belgilanadi. Universitet qabul davrida yo‘nalish, til va ta’lim shakllari bo‘yicha guruhlarning bandligidan kelib chiqqan holda kvotalar joriy etish huquqini o‘zida saqlab qoladi.
- 5.2. Agar muayyan ta’lim yo‘nalishidagi talabalar soni ellik (50) nafarga yetmasa, universitet ushbu ta’lim yo‘nalishini ochmaslik yoki ushbu talabalar uchun boshqa ta’lim yo‘nalishlarini tavsiya etish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Boshqa yo‘nalishga o‘tishni istamagan abituriyentlar uchun Universitet to‘lov-kontrakt asosida to‘langan mablag‘ning butun summasini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, yozma arizada ko‘rsatilgan plastik kartalarga yoki hisob raqamlariga qaytarib beradi. Qabul jarayonida barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun kamida ellik (50) nafar talaba qabul qilingan taqdirda “TIUE” dasturlarni amalga oshira oladi.

6. Imkoniyati cheklangan abituriyentlar

- 6.1. “TIUE” imkoniyati cheklangan abituriyentlarga o‘z yutuqlari, salohiyatlarini namoyish etish va Universitet dasturlaridan teng foydalanish imkoniyatini yaratadi.
- 6.1.1. Qabul komissiyasi hamma holatlarda imkoniyati cheklangan abituriyentlarning “online-ariza”larini ko‘rib chiqadi va abituriyentlar bilan qo‘srimcha ma’lumotlar olish uchun bog‘lanishi mumkin. Ma’lumotlardan foydalanish abituriyentning dasturlarga muvofiqligini aniqlash va ularning qo‘srimcha talablarini o‘rganish uchun olinadi. Agar “TIUE” tomonidan taklif qilinayotgan dasturlar imkoniyati cheklangan abituriyentlarga to‘g‘ri kelmasa (ko‘zi ojiz, qulog‘i kar, soqov va hokazo) bunday hollarda Universitet abituriyent arizasini rad etishga majbur bo‘lishi mumkin.
- 6.2. Abituriyentlar o‘zlarining imkoniyatlari cheklanganliklari to‘g‘risidagi barcha tasdiqlovchi hujjatlarini taqdim etishlari kerak.
- 6.3. Abituriyentlar 4-bandga muvofiq o‘z ehtiyojlariga ko‘ra tegishli ta‘lim shaklini tanlashlari mumkin.

7. O‘qishni qayta tiklash

- 7.1. Talaba “TIUE”da kamida 1-semestrni qarzdorliksiz (akademik va moliyaviy) to‘liq tugatgan bo‘lib qandaydir sabablarga ko‘ra o‘qishini davom ettira olmagan bo‘lsa, ularni o‘qishini qayta tiklash yoki tiklamaslik huquqini Universitet o‘z zimmasida qoldiradi.

8. Saralashning asosiy shartlari

- 8.1. Ushbu tartib-qoidalarning 2.2.- hamda 2.3.-bandlariga muvofiq “TIUE”adolatli bo‘lishga va barcha abituriyentlar uchun teng imkoniyatlarni taqdim etishga intiladi. Tanlov imtihon va qabul mezonlariga javob beradigan akademik mukammallikka asoslanadi.
- 8.2. “TIUE” quyidagi hujjatlar asosida bakalavr va magistratura yo‘nalishlariga qabul qiladi:
 - 8.2.1. Bakalavr yo‘nalishiga maktab, litsey, kollejni bitirganlik to‘g‘risidagi shahodatnoma yoki diplom, xalqaro standartlaridagi darajalar “A-Levels”, “AS levels”, “IB”, “BTECs”, “Advanced/Progression Diploma”, mahalliy va

xorijiy mamlakatlarning bakalavr (shu jumladan, bakalavr dasturining turli bosqichlarini o‘qib bitirgan) abituriyentlarni qabul qiladi.

- 8.2.2. Magistratura yo‘nalishiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning bakalavr darajasidagi diplomga, xorijiy tillarni bilish darajasini aniqlovchi xorijiy yoki unga tenglashtirilgan milliy tan olingan sertifikatlar (B2 va unga mos darajada, ta’lim rus va o‘zbek yo‘nalishlarda B1 daraja)ga ega bitiruvchilarni qabul qiladi.
- 8.3. Tartib-qoidalar abituriyentning qobiliyatlarini ta’lim dasturlari talablariga mos kelishini ta’minalash uchun ishlab chiqilgan.
- 8.4. “TIUE” dasturlariga topshirish uchun barcha abituriyentlar **FAQAT UNIVERSITETNING RASMIY VEB-SAHIFASI (www.tiue.uz) ORQALI ARIZALARINI “ONLINE” TOPSHIRISHLARI KERAK BO‘LADI:**
- 8.5. “Online” tarzda taqdim etilgan arizalar ushbu tartib-qoidalarda belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqiladi.
- 8.6. Ushbu tartib-qoidalarning 10-bandida “TIUE”ga abituriyentlarni qabul qilishga qo‘yiladigan talablar belgilangan.
- 8.7. Abituriyentlarni qabul qilish talablari har yili Qabul komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi.
- 8.8. Abituriyentning “TIUE”ga o‘qishga kirish **TALABLARIGA JAVOB BERMAYDIGAN** “onlayn” arizasi avtomatik ravishda rad etiladi.

9. Hujjatlarni qabul qilish jarayoni

- 9.1. Qabul uchun arizalar Universitetning rasmiy veb-sahifasi orqali faqat **“ONLINE-ARIZA” shaklida qabul qilinadi (www.tiue.uz)**. Shu bilan birga, abituriyent onlayn arizani (yoki so‘rovnomani) Universitetda to‘ldirish imkoniyatiga ega.
- 9.2. Abituriyentlar o‘zları haqidagi shaxsiy ma’lumotlarni to‘g‘ri kiritishlari hamda kerakli bo‘lgan elektron hujjatlarni Universitetning qabul tizimiga yuklashlari kerak. Bunda, abituriyent taqdim etilgan ma’lumotlarning ishonchliligi va to‘g‘riligini kafolatlaydi.
- 9.3. Kerakli hujjatlar yuklangandan so‘ng, hujjatlarni qabul qilish bo‘yicha mas’ul xodim abituriyent tomonidan taqdim etilgan barcha hujjatlarni o‘rganishni boshlaydi.

- 9.4. Abituriyent hujjatlarini tizimda topshirgandan so‘ng, imtihonlarni topshirishdan oldin abituriyent o‘z “online-ariza”siga tuzatishlar kiritishi mumkin bo‘ladi.
- 9.5. Kerakli hujjatlar bo‘lmasa, hujjatlarni qabul qilish bo‘yicha mas’ul xodim abituriyent bilan bog‘lanishi mumkin.
- 9.6. Abituriyentlarga tizimda bir nechta “online-ariza” topshirishga ruxsat berilmaydi.
- 9.7. Universitet abituriyent bilan muloqotni faqatgina abituriyent tomonidan “online-ariza”da ko‘rsatilgan elektron pochta manzili yoki sms habar orqaligina tashkil qiladi. Har bir abituriyent “online-ariza”da ko‘rsatilgan Universitet qabul platformasidagi shaxsiy kabinetini o‘z vaqtida tekshirib turish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.
- 9.8. Agar abituriyent oldin topshirilgan hujjatlarga qoshimcha ravishda ma’lumot taqdim etmoqchi bo‘lsa, unda o‘z murojaatini admission@tiue.uz manziliga xat yuborish orqali ma’lum qilishi mumkin. Aks holda, Universitet ushbu “online-ariza”ni rad etishga haqlidir.
- 9.9. Abituriyentlar “online-ariza”larni topshirganlaridan so‘ng, taqdim etilgan elektron pochtalariga arizalarini muvaffaqiyatli topshirganlari haqida yo‘riqnomalar bilan tasdiq xati yoki sms habarnoma oladilar.
- 9.10. Agarda ikki (2) ish kunida abituriyentlar “online” arizalari muvaffaqiyatli topshirilganligi haqida tasdiq xati yoki sms habarnoma olmasalar, ushbu holda Abituriyentlarni qabul qilish bo‘limi elektron pochtasiga admission@tiue.uz xat bilan murojaat qilishlari mumkin.
- 9.11. Bundan tashqari, abituriyentlar imtihonga hamda “TIUE” tomonidan taqdim etiladigan dasturlari haqida umumiy ma’lumotlarga oid barcha savollarni admission@tiue.uz elektron manziliga yuborishlari mumkin
- 9.12. Agar abituriyent bir vaqtning o‘zida bir nechta Universitetlar tomonidan talaba sifatida qabul qilingan bo‘lsa, abituriyent faqat bittasini tanlashi kerak.
- 9.13. Agar abituriyent O‘zbekistondagi boshqa oliy ta’lim muassasasi talabasi bo‘lsa, “TIUE” talabasi bo‘lishidan oldin amaldagi Universitetni tark etishi yoki bitirishi kerak. Ushbu qoidaga rioya qilmaslik “TIUE” talabalar safidan chetlashtirilishga olib keladi.
- 9.14. Abituriyent “online-ariza”dagi ma’lumotlarni to‘g‘ri taqdim etish mas’uliyatini oladi. Abituriyentning zarur ma’lumotlarni o‘z vaqtida taqdim eta olmaganligi sababli yuzaga kelgan har qanday noto‘g‘ri ma’lumotlar Universitetni javobgarlikdan ozod etadi.

10. Qabul qoidalari va hujjatlarga talablар

10.1. TA'LIM O'ZBEK VA RUS TILIDAGI DASTURLARGA qabul talablari.

- 10.1.1. Ta'lim o'zbek va rus tillaridagi dasturlarga qabul uchun mahalliy va xorijiy abituriyentlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:
- a) Barcha mahalliy va xorijiy abituriyentlar o'rta, o'rta-maxsus ta'limga muassasalari yoki akademik litsey bitiruvchisi bo'lishi hamda belgilangan shakldagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat yoki (transkript) diplomini (o'qish joyidan ma'lumotnomasi) taqdim etishi shart. Universitet, zaruriyatga ko'ra, abituriyentlardan ushbu ta'limga muassasasining akkreditatsiyasi to'g'risidagi guvohnomani taqdim etishni talab qilishi mumkin;
 - b) bakalavriat yoki magistratura bitiruvchilari ham olgan ma'lumotini tasdiqlovchi tegishli diplom (transkript)ni taqdim etishlari shart;
 - c) barcha abituriyentlar 2025-yil 31-dekabrga qadar o'n olti (16) yoshga to'lgan bo'lishlari kerak;
 - d) agar boshqa mahalliy yoki xorijiy oliy ta'limga muassasalari talabalari o'qishlarini "TIUE"ga ko'chirmoqchi bo'lsalar, ular o'z universitetining akkreditatsiyasi va o'qish davrida o'qigan fanlari (dastur/modul) haqida ma'lumot berishlari kerak (batafsil ma'lumot uchun 11-bandga qarang);
 - e) abituriyent pasporti yoki "ID" kartasi nusxasi;
 - f) 3x4 o'lchamli oq fondagi fotosurat;
 - g) Qabul komissiyasi tomonidan vaziyatga ko'ra so'ralgan boshqa tegishli hujjatlari.

10.2. MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKLARIga qabul talablari.

- 10.2.1. Magistraturaga qabul tegishli ta'limga yo'naliishi va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'im, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilangan turdosh (magistraturaga qabul bo'yicha) oliy ta'limga yo'naliishlari ro'yxati bo'yicha bakalavr darajasiga yoki diplomli mutaxassis malakasiga ega bo'lgan shaxslar o'rtasida tanlov asosida amalga oshiriladi.
- 10.2.2. Magistratura mutaxassisliklariga qabul uchun mahalliy va xorijiy abituriyentlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:
- a) bakalavr darajasini tasdiqlovchi diplom (ilovasi bilan)

- b) abituriyent pasporti yoki “ID” kartasi nusxasi;
- c) 3x4 o‘lchamli oq fondagi fotosurat.
- d) Qabul komissiyasi tomonidan so‘ralgan boshqa tegishli hujjatlar.

10.2.3. Magistraturaga qabul on-layn ariza to‘ldirish hamda so‘ralgan hujjatlarni yuklash orqali TIUE rasmiy sayti www.tiue.uz orqali amalga oshiriladi.

10.2.4. **O‘zbek va rus tillaridagi dasturlar uchun** magistraturaga o‘qishga topshirmoqchi bo‘lgan abituriyentlar Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2022-yil 30-iyundagi 220-sonli Buyrig‘i ilovasida keltirilgan ro‘yxatga asosan xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlardan birini taqdim etishi zarur (taqdim etilgan sanada amal qilishi kerak*).

Ingliz tilidagi dasturlar uchun ingliz tilini bilish darajasini belgilovchi sertifikat (taqdim etilgan sanada amal qilishi kerak*) ilovada keltirilgan jadvalda ko‘rsatigan sertifikatlardan birini taqdim etishlari lozim.

Xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro‘yxati **2-lovada**

*) Izoh - Talaba Universitetning "Magistratura qabul" nizomiga muvofiq tan olingan xalqaro chet tilini bilish sertifikatlarini o‘quv yili yakuniga qadar taqdim etish sharti bilan Universitetga qabul qilinadi. Bunda magistratura talabalari xorijiy til bilish Sertifikatini Universitetga taqdim etgandan keyingina Magsitratura dissertatsiya himoyasiga qo‘yilaydi.

10.3. TA’LIM INGLIZ TILIDAGI xalqaro “INTERNATIONAL FOUNDATION PROGRAMME” dasturiga qabul talablari.

10.3.1. Ta’lim ingliz tilidagi xalqaro “International Foundation Programme” dasturiga qabul uchun mahalliy va xorijiy abituriyentlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- a) Barcha mahalliy va xorijiy abituriyentlar o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim muassasalari va va akademik litsey bitiruvchisi bo‘lishi yoki akademik litseylar bitiruvchisi bo‘lishi hamda belgilangan shakldagi ma’lumot to‘g‘risidagi hujjat yoki (transkript) diplomini (o‘qish joyidan

- ma'lumotnoma) taqdim etishi shart. Universitet, zaruriyatga ko'ra, abituriyentlardan ushbu ta'lim muassasasining akkreditatsiyasi to'g'risidagi guvohnomani taqdim etishni talab qilishi mumkin;
- b) barcha abituriyentlar 2025-yil 31-dekabrga qadar o'n olti (16) yoshga to'lgan bo'lishlari;
 - c) agar boshqa mahalliy yoki xorijiy oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishlarini "TIUE"ga ko'chrimoqchi bo'lsalar, ular o'z universitetining akkreditatsiyasi va o'qish davrida o'qigan fanlari (dastur/modul) haqida ma'lumot berishlari kerak (batafsil ma'lumot uchun 11-bandga qarang);
 - d) abituriyent pasporti yoki "ID" kartasi nusxasi;
 - e) 3x4 o'lchamli oq fondagi fotosurat;
 - f) Qabul komissiyasi tomonidan vaziyatga ko'ra so'ralgan boshqa tegishli hujjatlar.
 - g) Ingliz tilini bilish darajasini belgilovchi sertifikat yuqorda keltirilgan jadval asosida (taqdim etilgan sanada amal qilishi kerak*);

*) *Izoh - agarda abituriyent Ingliz tilini bilish darajasini tasdiqllovchi xalqaro sertifikatga ega bo'lmasa abituriyent "TIUE" ichki imtihonlarida qatnashishi mumkin bo'ladi.*

10.4. TA'LIM INGLIZ TILIDAGI (Year 1) dasturlarga qabul talablari.

- 10.4.1. Ta'lim ingliz tilidagi bakalavr dasturiga qabul uchun xorijiy va mahalliy abituriyentlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:
- a) Barcha mahalliy va xorijiy abituriyentlar o'rta maxsus (**12 yillik**) ta'lim muassasasini bitiruvchilari bo'lishlari, yoki boshqa o'quv dargohida tan olingan "International Foundation Programme" dasturi bitiruvchisi, yoki boshqa oliy ta'lim muassasasida bir yoki undan ko'p yil davomida o'qib kamida birinchi yilini muvaffaqiyatli bitirgan bo'lishlari kerak va ta'limni tasdiqllovchi shahodatnoma, (transcript) yoki diplomni taqdim etishlari shart. Universitet zaruriyatga qarab abituriyentlardan ta'lim dargohining akkreditatsiyadan o'tganligi haqida ma'lumotnoma taqdim qilishni talab etishi mumkin;
 - b) bakalavriat yoki magistratura bitiruvchilari ham olgan ma'lumotini tasdiqllovchi tegishli diplomni taqdim etishlari shart;

- c) barcha abituriyentlar 2025-yil 31-dekabrga qadar o‘n olti (16) yoshga to‘lgan bo‘lishlari kerak;
- d) agar boshqa mahalliy yoki xorijiy oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘qishlarini “TIUE”ga ko‘chirmoqchi bo‘lsalar, ular o‘z universitetining akkreditatsiyasi va o‘qish davrida o‘qigan fanlari (dastur/modul) haqida ma’lumot berishlari kerak (batafsil ma’lumot uchun 11-bandga qarang);
- e) abituriyent pasporti yoki “ID” kartasi nusxasi;
- f) 3x4 o‘lchamli oq fondagi fotosurat;
- g) qabul komissiyasi tomonidan vaziyatga ko‘ra so‘ralgan boshqa tegishli hujjatlar.
- h) Ingliz tilini bilish darajasini belgilovchi sertifikat (taqdim etilgan sanada amal qilishi kerak*):
 - “IELTS”-kamida 5.5
 - “iTEP Academic Plus”- kamida 3.5
 - “Linguaskill”- kamida 160
 - “Certificate of Foreign Language Proficiency (Milliy sertifikat)”- kamida B2
 - “Cambridge Assessment English”- kamida 160
 - “TOEFL IBT”- kamida 72
 - “TOEFL ITP”-kamida 543

**) Izoh- agarda abituriyent Ingliz tilini bilish darajasini tasdiqlovchi xalqaro sertifikatga ega bo‘lmasa abituriyent “TIUE” ichki imtihonlarida qatnashishi mumkin bo‘ladi.*

- ## 11. Mahalliy va xorijiy universitetlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul (TRANSFER)
- 11.1. Qabulga arizalar faqat Universitetning rasmiy sayti (www.tiue.uz) orqali "**ONLINE-ARIZA**" shaklida qabul qilinadi. Shu bilan birga, abituriyent onlayn arizani (yoki so‘rovnomanini) Universitetda to‘ldirish imkoniyatiga ega.
 - 11.2. Abituriyentlar o‘zlari haqidagi shaxsiy ma’lumotlarni to‘g‘ri kiritishlari hamda kerakli bo‘lgan elektron hujjatlarni Universitetning qabul tizimiga yuklashlari

kerak. Bunda, abituriyent taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligi va to'g'rilingini kafolatlaydi.

- 11.3. Kerakli hujjatlar yuklangandan so'ng, hujjatlarni qabul qilish bo'yicha mas'ul xodim abituriyent tomondan taqdim etilgan barcha hujjatlarni o'rganishni boshlaydi.
- 11.4. Kerakli hujjatlar bo'lmasa, hujjatlarni qabul qilish bo'yicha mas'ul xodim abituriyent bilan bog'lanishi mumkin.
- 11.5. Universitet abituriyent bilan muloqotni faqatgina abituriyent tomonidan "online-ariza"da ko'rsatilgan elektron pochta manzili orqaligina tashkil qiladi. Har bir abituriyent "online-ariza"da ko'rsatilgan elektron pochtasini o'z vaqtida tekshirib turish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
- 11.6. TIUEning 2-yil (Year 1)ga to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish (o'qishni ko'chirish) shartlari:
 - 11.6.1. To'g'ridan-to'g'ri qabul (transfer) talablari TIUEDagi barcha bakalavriat dasturlariga qo'llaniladi va tegishli akademik ma'lumotga va qobiliyatga ega potentsial talabalarni tanlash uchun mo'ljallangan.
 - 11.6.2. O'qishni ko'chirayotgan talabalar o'quv yili oxirida tugallangan barcha fanlar uchun akademik transkript va o'quv rejani (dastur/modul tavsifi) taqdim etishlari shart.
 - 11.6.3. Agar transkriptda sanab o'tilgan fanlar va TIUE fanlari o'rtasidagi farq 100 ta TIUE kreditidan oshmasa:
 - a. O'qishni ko'chirish faqat mos keladigan sohaga (o'qish sohasiga yaqin) amalga oshirilishi mumkin;
 - b. Agar akademik ma'lumotnomada (transkript) ko'rsatilgan fanlarda 100 ta TIUE kredit farqi bo'lsa, ushbu fanlarni TIUEDa qaytadan topshirish imkoniyati mavjud (belgilangan to'lov asosida). Qayta tayyorlash uchun 2025/2026-o'quv yilida imkoniyatlar shartli ravishda taqdim etiladi. Agar 100 kreditdan tadan ortiq fanlar farqi bo'lsa, bu holatni universitet alohida ko'rib chiqish huquqiga ega.
 - c. TIUE da ichki kirish imtihonlarini muvaffaqiyatli yakunlash (agar kerak bo'lsa).

- 11.7. TIUE talablariga javob beradigan va “International Foundation Programme” dasturining e’tirof etilgan sertifikati yoki diplomiga ega bo‘lgan talabgorlar, 10.3 “h” bandning talablariga muvofiq bo‘lsa, ya’ni ingliz tilini bilishini tasdiqlovchi sertifikat taqdim etganida yoki ichki kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o’tganida, qabul qilinishi mumkin.
- 11.8. TIUE odatiy amaliyotdan farq qilishi mumkin bo‘lgan qo‘sishcha o‘qishni ko‘chirish variantlarini taqdim etish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

12. Hujjatlarni qabul qilish va imtihon topshirish muddatlari

- 12.1. TIUE 2025-yil 1-fevraldan boshlab 2025/2026-o‘quv yili uchun abituriyentlardan hujjatlarni qabul qilishni boshlaydi. Hujjatlarni qabul qilish 2025-yil 31-avgustgacha davom etadi.
- 12.2. TIUE zarur deb topsa, o‘quv yiliga tayyorgarlikka zarar yetkazmagan holda qabul muddatini uzaytirish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

13. Kirish imtihonlari

- 13.1. Onlayn arizalar muvaffaqiyatli topshirilgandan so‘ng, abituriyentlar TIUE ta’lim dasturlari bo‘yicha til va matematikani bilish darajasini aniqlash uchun kirish imtihonlari topshiradilar.
- 13.2. Agar abituriyent ingliz tilini bilishini tasdiqlovchi sertifikatga ega bo‘lsa (10.2. “h” va 10.3. “h” bandlariga muvofiq) abituriyent ingliz tili kirish imtihonidan avtomatik ravishda ozod etiladi.
- 13.3. Davlat imtihonlari (UzBMB) natijalariga ko‘ra til bilish va matematika fanlaridan TIUE ga kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o‘tish baliga mos ball to‘plagan abiturientlar Qabul komissiyasining tegishli qaroriga ko‘ra imtihonlarsiz qabul qilinishi mumkin.
- 13.4. Universitet tomonidan tashkil qilingan olimpiadalar go‘liblari va sovrindorlari bo‘lgan abiturientlar universitetga kirish imtihonlarisiz qabul qilinadi.
- 13.5. Quyidagi jadvalda va quyida qabul davrida imtihonlar boshlanadigan sanalari, joyi va vaqtiga haqida ma’lumot berilgan:

Fanlar	Imtihon sanalari
Matematika va Ta’lim tili (o’zbek, rus va ingliz tillarida)	2025-yil iyun, iyul va avgust oylarida
Matematika va Ta’lim tili (o’zbek, rus va ingliz tillarida) <i>(zaruriyat bo’lsa TIUE ixtiyoriga ko’ra tashkil etiladi)</i>	2025-yil sentyabr oyida

13.6. **Kirish imtihonlari o’tkaziladigan joy** – TIUE universiteti binosi **bo‘lib, uning manzili:** Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Tuzel-2 massivi, Imom Buxoriy ko‘chasi.

Manzil: <https://tiue.uz>

Telefon : (+998) 55 512 20 20 (303); (+998) 99 560 20 20

Jamoat transporti:

Avtobuslar: № 30, 44, 95, 106, 110, 119, 129, 148.

Minibuslar: № 47, 91, 73, 111, 369.

Metro: “Tuzel” bekati

Kirish imtihonlari vaqtি -

Birinchi smena 9:30 dan - 12:30 gacha

Ikkinci smena 14:30 dan - 17:30 gacha

Kirish imtihon to‘lovli – BEPUL

Muhimi! TIUE universiteti **KIRISH IMTIHONLARINING** sanalari, joyi va vaqtiga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish huquqiga ega. Bu haqda TIUE rasmiy ijtimoiy tarmoqlarida va www.tiue.uz rasmiy veb-saytida qo’shimcha ravishda e’lon qilinadi, shuningdek, xabar berish TIUE ro‘yxatga olish portalida talabgorning ilgari ro‘yxatdan o’tgan elektron manziliga bildirishnomalar yuborish orqali amalga oshiriladi.

13.7. Kirish imtihoni faqat til bilish va matematika fanlarini bilish darajasini aniqlash uchun testlar yoki boshqa vazifalar (**Imtihon uchun jami 100 ball**)dan iborat.

O’tish ballari – Reytingga asosan, muvaffaqiyatli nomzodlar qabul kvotasi oldidan tanlanadi

O'qish sohalari	O'qitish tillari	Kirish imtihonlari (Fanlar) / Baholash mezonlari	
		1. Til bilish	2. Matematika
Axborot texnologiyalari	O'zbek tili		
	Rus tili		
Kiberxavfsizlik	O'zbek tili		
	Rus tili		
Biznes boshqaruvi	O'zbek tili	Test (10 ta ko'p tanlovli test savollari, har bir to'g'ri javob uchun 5 ball bilan) - umumiy hisobda 50 ball.	Test (10 ta ko'p tanlovli test savollari, har bir to'g'ri javob uchun 5 ball bilan) - umumiy hisobda 50 ball.
	Rus tili		
Buxgalteriya va biznes	O'zbek tili	Vaqt: 20 daqiqa.	Vaqt: 40 daqiqa.
	Rus tili		
Ta'lif va ta'lif jarayonlarini boshqarish	O'zbek tili		
	Rus tili		
Filologiya va tillarni o'qitish	O'zbek tili		
	Rus tili		
Amaliy matematika	O'zbek tili		
	Rus tili		
International Foundation Programme "IFP"	Ingliz tili	Tilni bilish imtihoni IELTS shaklida yoki IELTS sertifikatini 5.0 va undan yuqori YOKI ekvivalentini taqdim etish.	

Izoh:

1. Bir marta kirish imtihoniga taklif qilingan, ammo kela olmagan abituriyentlar qayta taklif etilishi mumkin.
2. Imtihonlarning birinchi bosqichlaridan muvaffaqiyatlari o'ta olmagan abiturientlarga matematika va til bilish darajalari bo'yicha qo'shimcha kirish imtihonlari topshirilish imkoniyati beriladi.
3. Universitet talabalarining sharoit va imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda online test tashkil qilish huquqiga ega.

13.7.1. Til bilish darajasini aniqlash uchun maxsus sharoitlar (o‘zbek, rus, ingliz tillari):

- a) **O‘zbek va rus tillarida:** yozma imtihon universitet tomonidan belgilanadigan vaqtida va joyda yozma ravishda (qog‘ozda yoki axborot texnologiyalari yordamida) o‘tkaziladi. Muvaffaqiyatli o‘tish bali universitet tomonidan belgilanadi.
 - b) **Ingliz tilida:** IELTS shaklida (qog‘ozda yoki axborot texnologiyalari yordamida) tegishli sertifikat yoki diplom bo‘lmagan holda, universitet tomonidan belgilanadigan vaqtida va joyda o‘tkaziladi. International Foundation dasturi uchun imtihonni muvaffaqiyatli topshirish IELTS imtihonidan kamida 5,0 ballga, ikkinchi yili esa kamida 5,5 IELTS balliga tengdir.
- 13.8. Bir marta kirish imtihoniga taklif qilingan, ammo imtihonga kela olmagan abituriyentlar qayta taklif etilishi mumkin.
- 13.9. Shu bilan birga, TIUE birinchi bosqichlardan o‘ta olmagan abituriyentlar uchun qo‘sishimcha kirish imtihonlarini o‘tkazish huquqini o‘zida saqlab qoladi.
- 13.10. TIUEga qabul qilingan yoki rad etilganligi to‘g‘risidagi rasmiy hujjatlar, ariza beruvchining imtihondan o‘tgan yoki o‘tmaganligidan qat’i nazar, faqat ariza beruvchiga, yaqin qarindoshlariga yoki notarial tasdiqlangan ishonchnomaga ega bo‘lgan shaxslarga topshiriladi.
- 13.11. Kirish imtihon qog‘ozlari TIUEning mulkidir va butunlay maxfiydir. TIUE imtihon baholari va imtihon qog‘ozlarini (hujjatlarni) ko‘rsatish majburiyatiga ega emas.

14. Imtihon topshirish uchun ko‘rsatmalar:

Imtihonlardan oldin:

- TIUE universitetiga imtihon boshlanishidan 20 daqiqa oldin kelish;
- Shaxsingizni tasdiqlash uchun ID-karta yoki pasportning asl nusxasini taqdim etish;
- O‘zingiz bilan ruchka oling;
- Bitta suv (0,5 l) olib kelish mumkin;
- Auditoriya raqamini va har bir talabgorga topshiriladigan o'rindiq raqamini

tekshirish;

- Imtihon xonasiga kirishdan oldin talabgorlar imtihon davomida foydalanishga ruxsat etilmagan aldov varaqalari yoki buyumlarni tekshirishga tayyor bo‘lishlari kerak;
- Imtihonga kirish uchun ruxsat olgandan so‘ng, talabalar o‘z joylarini egallashlari va imtihonlar boshlanishidan oldin nazoratchilarning (universitetning mas’ul vakillari) qo‘srimcha ko‘rsatmalarini kutishlari va anketalarga tegmasliklari kerak.
- Auditoriyaga kirishdan oldin xojatxonadan foydalaning.

Quidagilar QAT’IYAN MAN ETILADI:

- Imtihonga telefon /smart-soat, gadget yoki sumka olib kirish. Agar mazkur buyumlar mavjud bo‘lsa, imtihon xonasiga kirish joyida qoldirishingiz kerak.
- Imtihon jarayonida (yo‘riqnomalarda ko‘rsatilmagan bo‘lsa) har qanday yozuvli materiallar, daftarlар yoki boshqa turdagи hujjat va nashrlar.

Imtihonlar davomida:

- Boshqa abituriyentlar bilan muloqot qilish taqiqlanadi;
- Imtihon/javoblar varaqasidagi ma'lumotlaringizni diqqat bilan to'ldiring va pasportingiz yoki identifikatsion kartangiz va pochta kodingiz bo'yicha - abituriyentlar jadvalida ko‘rsatilgan raqamga muvofiq identifikatsion raqamingizni ko‘rsatganligiga ishonch hosil qiling.
- Abituriyentlar bilan muloqot qilish, imtihon paytida atrofga qarash, suhbatlashish yoki boshqalarni bezovta qilish va har qanday intizom va tartib qoidalarini buzish taqiqlanadi.
- Savollaringiz bo‘lsa, qo‘lingizni ko‘taring va yoningizga invigilator kelishini kuting.
- Imtihon vaqtி tugagach yozishni to‘xtatib, qat’iy ko‘rsatmalarga ko‘ra ishni invigilatorga topshiring.
- Imtihonlar vaqtida o‘quvchi qog‘ozni topshirmagan bo‘lsa, xonadan chiqish taqiqlanadi.

15. Muvaffaqiyatli abituriyentlarni ro‘yxatdan o‘tkazish jarayoni

- 15.1. Imtihonlarni topshirgandan so‘ng, 5 (besh) ish kuni ichida imtihon natijalari

to‘g‘risidagi sms habarnoma (PASS / FAIL) abituriyentning TIUE Abituriyentni ro‘yxatga olish portalida ro‘yxatdan o‘tgan telefon raqami orqali yuboriladi.

- 15.2. “TIUE” talablariga javob beradigan muvaffaqiyatli abituriyentlar 10-bandda ko‘rsatilgan asl nusxadagi hujjatlarini taqdim etganidan so‘ng belgilangan muddatda Universitetning Qabul komissiyasidan to‘lov-kontrakt asosida o‘qish shartnomasini oladilar.
- 15.3. Abituriyent o‘qish to‘lov-kontraktiga muvofiq moliyaviy majburiyatlarni bajarganidan so‘ng, “TIUE” rektori tomonidan talabalikka qabul qilish to‘g‘risida buyruq chiqariladi. Buyruq odatda Sentabr oyida yoki o‘quv yilining boshlanishiga yaqin chiqariladi.
- 15.4. Agar abituriyent har qanday holatda qabul jarayonida yolg‘on ma’lumotlar, soxta hujjatlar taqdim etgan va qabul jarayonida aldov ishlatgan bo‘lsa, “TIUE” o‘qish shartnomasini bir taraflama bekor qiladi. Bu shart Universitetga o‘qishga kirgandan keyin ham amal qiladi.

16. Appelyatsiya

- 16.1. Abituriyentlar “TIUE” kirish imtihonlarida olgan baholariga nisbatan e’tiroz bildirish huquqlariga ega emaslar, ya’ni “TIUE” imtihon varaqalarini abituriyentlarga ko‘rsatmaydi va akademik baholash natijalari ustidan shikoyatlar qabul qilinmaydi.
- 16.2. Abituriyentlar imtihon jarayonida sodir bo‘lgan holatlar bo‘yicha yetarli dalillar mavjud bo‘lsa, o‘z shikoyatlarini Qabul komissiyasi raisiga yozma ravishda 3 (uch) kun ichida taqdim etishlari lozim.

17. To‘lov-kontrakt miqdori

- 17.1. Mahalliy va xorijiy abituriyentlar uchun “TIUE” dasturlaridagi belgilangan to‘lov-kontrakt miqdori o‘zaro farq qiladi.
- 17.2. “TIUE” kelgusi yillar uchun to‘lov-kontrakt miqdorini qayta ko‘rib chiqish huquqini o‘zida saqlab qoladi.
- 17.3. Quyidagi jadvalda dasturlardagi to‘lov-kontrakt miqdori haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan:

TA'LIM O'ZBEK VA RUS TILIDAGI DASTURLAR

Dasturlar	Ta'lif shakli	O'qish davomiyligi (o'quv yili)	O'qish uchun to'lovlar (bir o'quv yili uchun)	
			Mahalliy talabalar uchun (so'm)	Xorijlik talabalar uchun (USD)
BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHLARI				
Axborot texnologiyalari	Kunduzgi	4	18 000 000	1 400
	Sirtqi	5	11 200 000	800
Kiberxavfsizlik	Kunduzgi	4	18 000 000	1 400
	Sirtqi	5	11 200 000	800
Biznes boshqaruvi	Kunduzgi	4	18 000 000	1 400
	Sirtqi	5	11 200 000	800
Buxgalteriya hisobi va biznes	Kunduzgi	4	18 000 000	1 400
	Sirtqi	5	11 200 000	800
Ta'lif va ta'lif jarayonlarini boshqarish	Kunduzgi	4	18 000 000	1 400
Amaliy matematika	Kunduzgi	4	14 000 000	1 100
Filologiya va tillarni o'qitish	Kunduzgi	4	14 000 000	1 100
MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKHLARI				
Pedagogika nazariyasi va tarixi (MSc)	Kunduzgi	1,5	23 000 000	1 800
Ta'lif muassasalari boshqaruvi (MSc)	Kunduzgi	1,5	23 000 000	1 800
Ma'lumotlar ilmi (Data Science)	Kunduzgi	1,5	30 000 000	2 500
Buxgalteriya hisobi va moliya	Kunduzgi	1,5	25 000 000	2 000

*) Izoh: Xorijiy talabalar O'zbekiston hududidan turib jadvalda keltirilgan AQSh dollaridagi o'qish to'lov miqdorini to'lov qilayotgan kunlaridagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursda O'zbekiston Respublikasi milliy so'miga o'girgan holda amalga oshiradilar. O'zbekiston hududidan tashqarida turib jadvalda keltirilgan AQSh dollarida amalga oshiradilar.

TA'LIM INGLIZ TILIDAGI DASTURLAR

Dasturlar	Ta'lism shakli	O'qish davomiyligi (o'quv yili)	O'qish uchun to'lovlar (bir o'quv yili uchun)	
			Mahalliy talabalar uchun (so'm)	Xorijlik talabalar uchun (USD)*
International Foundation Programme “IFP” (“OTHM” Level 3)	Kunduzgi	1	21 000 000	1 700

BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHLARI

Axborot texnologiyalari	Kunduzgi	3	25 000 000	2 000
Biznes boshqaruvi	Kunduzgi	3	25 000 000	2 000
Ta'lim va ta'lim jarayonlarini boshqarish	Kunduzgi	3	25 000 000	2 000
Buxgalteriya hisobi va biznes	Kunduzgi	3	25 000 000	2 000

MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKHLARI

Ta'lim boshqaruvi va yetakchilik (MSc)	Kunduzgi	1,5	25 000 000	2 000
Ma'lumotlar ilmi (Data Science) (MSc)	Kunduzgi	1,5	35 000 000	2 800
Buxgalteriya hisobi va moliya (MSc)	Kunduzgi	1,5	30 000 000	2 400

*) Izoh. Xorijiy talabalar O'zbekiston hududidan turib jadvalda keltirilgan AQSh dollaridagi o'qish to'lov miqdorini to'lov qilayotgan kunlaridagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha amalga oshiradilar. O'zbekiston hududidan tashqarida turib jadvalda keltirilgan AQSh dollarida amalga oshiradilar.

18. Scholarship & Moliyaviy yordam

- 18.1. TIUE hozirda mahalliy yoki xalqaro talabalarga moliyaviy yordam ko‘rsatmaydi. Moliyaviy imkoniyatlarga asoslanib, universitet turli xil “moliyaviy yordam” dasturlarini taklif qilish huquqini o‘zida saqlab qoldi.
- 18.2. Shu bilan birga, TIUE universitetiga har yili davlat granti asosida kadrlar tayyorlash uchun davlat buyurtmasi asosida kvotalar ajratiladi (kontrakt bo‘yicha to‘lov budjet mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi). Kadrlarni davlat granti asosida tayyorlash davlat buyurtmasi vazirliklar, idoralar va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining yuqori ma‘lumotli va malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyoji asosida shakllantiriladi.

Davlat granti IFP dasturi va bakalavr dasturlarining birinchi kurs kunduzgi ta’lim shaklidagi davlat granti asosida o‘qish istagini bildirgan talabalar o‘rtasida alohida imtihonlar o‘tkazish orqali universitet tomonidan beriladi. *Batafsil ma’lumot uchun, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2021-yil 19-oktyabrdagi 3326-son qarori bilan ro‘yxatga olingan Nizomga muvofiq.*

19. TIUE kontakt ma’lumotlari

Tashkent International University of Education	http://www.tiue.uz
Abituriyentlardan hujjat qabul qilish tizimi	https://apply.tiue.uz
O‘qishni ko‘chirish uchun hujjat qabul qilish tizimi	https://transfer.tiue.uz
Elektron pochta (Email)	info@tiue.uz admission@tiue.uz
Telefonlar	(+998) 55-512-20-20 (291)
Telegramda qo‘llab-quvvatlash	(+998) 99-560-20-20
Jamoat transporti	Avtobuslar: № 30, 44, 49, 95, 106, 110, 129, 148. Mikroavtobuslar: № 47, 73, 91, 99, 111, 369. Metro: «Tuzel» bekati
Manzil	Toshkent sh., Yashnobod tumani, Tuzel-2 massivi, Imom Buxoriy ko‘chasi
Foydali havolalar	https://www.instagram.com/tiue_uz/ https://www.facebook.com/tiue.uz/ https://t.me/tiue_uz
Qabul komissiyasining ish vaqtি	Dushanbadan Jumagacha, 9:30 dan 17:30 gacha.

Ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risida
SHARTNOMA LOYIHASI

**Xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar
RO‘YXATI**

T/r	Sertifikat nomi	Muvofiqlik darajasi		
		Common European Framework of Reference (CEFR) Shkalasi bo‘yicha		
		B2	C1	C2
1.	Milliy sertifikat	B2	C1	C2
Ingliz tili bo‘yicha				
2.	International English Language Testing System (IELTS)	5.5 — 6.5	7.0 — 8.0	8.5 — 9.0
3.	Test of English as a Foreign Language (TOEFL iBT)	72 — 94	95 — 113	114 — 120
4.	Test of English as a Foreign Language (TOEFL ITP)	543 — 626	627 — 677	
5.	Cambridge Assessment English Linguaskill	160 — 179	180+	
6.	Cambridge Assessment English (FCE)	160+		
7.	Cambridge Assessment English (CAE)		180+	
8.	Cambridge Assessment English (CPE)			200+
9.	Test of English for International Communication (TOEIC)	1095 — 1300*	1305 — 1309	
Fransuz tili bo‘yicha				
10.	Diplome dEtudes en Langue Francaise (DELF)	DELF B2		

11.	Diplome Approfondi de Langue Franfaise (DALF)		DALFCI	DALF C2
12.	Test de Connaissance du Franfais (TCF)	B2	C1/	
Nemis tili bo'yicha				
13.	Goethe-Zertifikat	Goethe-Zertifikat B2	Goethe-Zertifikat C1	Goethe-Zertifikat C2 GroBes Deutsches Sprachdiplom C2
14.	Deutsches Sprachdiplom (DSD II)	B2	C1	
15.	Test Deutsch als Fremdsprache (Test DAF)	TDN 4 (B2.2 — C1.1) TDN 3 (B2Л)	TDN 5 (C1.2)	
Ispan tili bo'yicha				
16.	Diplomas de Espanol como Lengua Extranjera (DELE)	B2	C1	C2
17.	Servicio Internacional de Evaluacion de la Lengua Espanola (SIELE)	B2	C1	
Italyan tili bo'yicha				
18.	Certificatos di Conoscenza della Lingua Italiana (CELI)	CELI 3	CELI 4	CELI 5
19.	Certificazione di Italiano come Lingua Straniera (CILS)	CILS Due	CILS Tre	CILS Quattro
20.	Accademia Italiana di Lingua (AIL)	DILI B2	DALI C1	
Arab tili bo'yicha				
21.	The Arabic Language Proficiency Test, Arabic Proficiency Test (ALPT, APT, E- TOAFL, American Council on the	B2	C1	C2

	Teaching of Foreign Languages (ACTFL)			
22.	AT Tanal A1 Arabi	B2	C1	C2
Xitoy tili bo'yicha				
23.	Hanyu Shuiping Kaoshi (HSK)	HSK4	HSK5	HSK6
Yapon tili bo'yicha				
24.	Japanese Language Proficiency Test (JLPT)	N2	N1	
Koreys tili bo'yicha				
25.	Test of Proficiency in Korean (TOPIKII)	Level 4 150—189	Level 5 190—229	Level 6 230 — 300
Turk tili bo'yicha				
26.	Tiirkge Yeterlik Sinavi (TYS)	B2 55 — 70	C1 71 — 88	C2 89— 100
27.	Istanbul Aydin Universitesi Tiirkfe Ogretimi Uygulama ve Ara§tirma Merkezi (Aydin TOMER)	B2 55 —70	C1 71 — 88	C2 89— 100

*) Izoh - Talaba Universitetning "Magistratura qabul" nizomiga muvofiq tan olingan xalqaro chet tilini bilish sertifikatlarini o'quv yili yakuniga qadar taqdim etish sharti bilan Universitetga qabul qilinadi. Bunda magistratura talabalari xorijiy til bilish Sertifikatini Universitetga taqdim etgandan keyingina Magistratura dissertatsiya himoyasiga qo'yilaydi.